



IDEOLOGICAL-AESTHETIC TRANSFORMATION OF THE STORY OF THE GULF IN THE EARLY 21ST CENTURY

Sh.I.Ahmedova

Shahlo Irgashbayevna Ahmedova

*Associate Professor, Doctor of Philological Sciences,
of Tashkent State University of Oriental Studies, f.f.n.*

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. At the end of the 20th century, in the 21st century, there are changes in the narrative writing of the Gulf countries, such as the expansion of the scope of topics, emphasis on psychologism. Writers of the Gulf resorted to various creative methods in the artistic depiction of the reality of life. In his stories, there were scenes that tried to depict life in accordance with reality, along with scenes representing the ineffective actions of the hero who was alone in the "depths" of the chaotic world. These existentialist principles form an artistic mixture in the works along with signs of over-emotionalism, enlightenment-like human concept, ironic attitude and intertextuality characteristic of postmodernism.

Keywords: 21st century, Gulf Arab countries, Holy Qur'an, "external (traditional) movement" (التعبير الخارجي), "inner movement" (التعبير الداخلي), "In the Deep" (في الحفرة), Surah "Al-Kahf", "Swimming" (سباحة), Khuda Naimi, Fawziya Rashid, postmodernism, internal monologue, intertextuality, existentialism.

XXI ASR BOSHLARIDAGI KO'RFAZ HIKOYASINING G'OYAVIY- ESTETIK TRANSFOMATSIYASI

Shahlo Irgashbayevns Ahmedova

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti dotsenti, f.f.n.

Toshkent, O'zbekiston

Annotasiya. XX asr oxiri XXI asrda Ko'rfaż mamlakatlari hikoyanavisligida, mavzular ko'laming kengayishi, psixologizmga urg'u berish kabi o'zgarishlar

kuzatiladi. Hayot voqeligini badiiy tasvirlashda Ko‘rfaz adiblari turli ijodiy metodlarga murojaat qilishdi. Hikoyalarida modernizmga xos inson ichki hissiy olamidagi beto‘xtov evrilishlar, tartibsiz dunyo “chuqurliklari”da yolg‘iz qolgan qahramonning, samarasiz harakatlarini ifodalovchi lavhalar bilan birga hayotni haqiqatga muvofiq tasvirlashga intilgan manzarlar o‘rin oldi. Bu ekzistentsializmga xos tamoyillar asarlarda o‘ta hissiyotga berilish, ma’rifatparvarlikka xos inson kontseptsiyasini oshkora ifodalash, postmodernizmga xos kinoyaviy munosabat va intertekstuallik belgilari bilan birga badiiy qorishmani tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar. XXI asr, Ko‘rfaz arab mamlakatlari, Qur‘oni Karim, “tashqi (an'anavy) harakat” (التعبير الداخلي), “ichki harakat”, “Chuqurlikda” (فى الحفرة), “Al-Kahf” surasi, “Suzish” (سباحة), Xuda Naimiy, Favziya Rashid, postmodernizm, ichki monolog, intertekstuallik, ekzistentsializm.

Аннотация. В новеллистике стран Персидского залива конца ХХ и начала XXI веков, рассматривается расширение круга тематики и акцент на психологизм. В художественном изображении реальности жизни писатели Персидского залива прибегают к различным творческим приемам, в их рассказах вместе со сценами, отображающими нескончаемые изменения внутреннего эмоционального мира человека, тщетные попытки одинокого героя подняться из «глубин» хаотичного мира (этот стиль свойственен модернизму), получили место страницы с реалистичными картинами, которые стремятся правдиво отобразить жизнь. Модернистские принципы экзистенциализма в произведениях исследованных авторов образуют художественную смесь с чрезмерной чувствительностью сентиментализма, с открытым выражением просветительской концепции человека, с ироническим подходом и признаками интертекстуальности, свойственными постмодернизму.

Ключевые слова: XXI век, арабские страны Персидского залива, Священный Коран, “внешнее (традиционное) движение” (التعبير الخارجي), “внутреннее движение” (التعبير الداخلي), “В глубине” (فى الحفرة), Сура “аль-Кахф”, “Плавание” (سباحة), Худа Наими, Фавзия Рашид, постмодернизм, внутренний монолог, интертекстуальность, экзистенциализм.

Ko‘rfaz mamlakatlari hikoyanavisligida XXI asr bo‘sag‘asida katta o‘zgarishlar va siljishlar bo‘ldi. Eng avvalo badiiy shaklning muhim unsurlaridan bo‘lgan an'anavy syujetda ro‘y berdi. Bir-biri bilan bog‘liq vaziyatlar, voqeahodisalar tizimi deyarli o‘zgarib, hikoyalar liriklashdi va ularda o‘y-fikrlar, histuyg‘u va kechinmalar rivoji kuchaydi.

Arab adabiyotshunoslari syujetning *tashqi* (an'anaviy) harakatini – “at-ta'bir al-xorijiy” (التعبير الخارجي) va ichki harakatini “at-ta'bir ad-daxiliy” (التعبير الداخلي), deb atashadi [1:68].

Qatar adibasi Huda Naimiy o‘zining “Behuda urinishlar” (”أبطال“) (1992) [2:129] hikoyalar to‘plamidagi “Chuqurlikda” (في الحفرة) “Tarix devoridagi dog” (اكروبات) (“Laylo va men”), (ليلي و أنا) (شخبطة على جدار التاريخ), “Boshqalar uchun ro‘y beradi” (يحدث لآخرين) nomli beshta hikoyasida “at-ta'bir ad-daxiliy”ni qo‘llagan.

Adibaning “Чуқурликда” (في الحفرة) [2:13] hikoyasida qahramon go‘yo bir chuqurlikka tushib qolgan. Uni hech kim qutqara olmaydi va qutqarish uchun harakat ham qilmaydi. Asar ichki monolog tarzida yozilgan bo‘lib, qahramon o‘zining ezilgan ko‘ngli tubida berkinib yotgan ba’zi his-tuyg‘ular to‘g‘risida hikoya qiladi:

كنت دوما مطينا لأبي وزوجته ، مطينا كذابة عجوز لا تعرف القفر على الأسوار .

[2:18] هذا العمق صار في المجتمع الذي بدأت أن أكرهه¹

“Men doim otam va xotinimga itoat qildim. Xuddi devordan sakray olmaydigan molga o‘xshab itoatkor bo‘ldim.

Bu chuqurlik men nafratlana boshlayotgan jamiyatda paydo bo‘lgan”.

Bu ruhiy holat qahramonning chuqur ruhiy-psixologik inqirozidir. Uning ichida go‘yo bir chuqurlik, unga tushib chiqa olmayapti. Najot kutmoqda, lekin yaqinlari yaqin emas, ular nima bo‘lar ekan deb kutishmoqda. Onasiz qolgandan keyin, otasi yosh xotinga uylanib, o‘g‘lini irodasini butunlay bo‘sundirgan. Hatto yosh xotinchasi oldiga kirishdan oldin o‘g‘liga oyog‘ini yuvdiradi, oyoq ustida yuviladigan idishni ham yosh xotini emas, o‘g‘il yuvardi. Katta bo‘lib, uylanib, xotiniga tobe bo‘ldi. Bu xotiniga ham boshlig‘ining buyrug‘i bilan uylangan. Xotini sochini har kuni turli ranglarga bo‘yab tovlanadi, erni bu holat ranjitadi, ammo hech nima qila olmaydi. Ruhiy holati bas kelmagandan keyin, badan a’zolari isyon ko‘tardi; oyoq-qo‘llari, suyaklari go‘yo harakatdan qoladi. Adiba shu holatni chuqur

psixologizm orqali ichki monolog uslubida ko‘rsatadi. Qahramon ruhiy inqirozdan chiqish yo‘lini qidira boshlaydi, lekin topa olmaydi.

Ko‘rib turibmizki, hikoyada konfliktlar (to‘qnashuvlar) syujet rivoji orqali emas, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi hodisa--voqealardan emas, balki uning qaltis holatga tushgan paytidan, ichki nutqida namoyon bo‘ladi. Ichki monolog bu yerda adabiy-estetik vazifani bajaradi. Qahramon onging uyg‘onishi, o‘z holatini, mavqeini o‘tkir anglashi, uning his-tuyg‘ulari, kechinmalarini to‘kilib sochilishi jarayoni - hammasi monologda o‘z ifodasini topdi. Albatta, yozuvchi Huda Naimiy bu uslubni shartli ravishda ataylab tanlagan, chunki u orqali yozuvchida g‘oyaviy- hissiy niyatini ifodalash ehtiyoji paydo bo‘lgan.

Deyarli syujetsiz, nutq shakli ustivor kelgan lirik qahramon his- tuyg‘ulari asosan ichki monolog orqali ifodalanishi Xuda Naimiyning ko‘pgina hikoyalari uchun xos. “Chuqurlikda” hikoyasi Huda Naimiy syujetni tashkil etishda xronikal ko‘rinishdan voz kechib natijani sababdan oldin qo‘yadi. Hikoyaning yana bir o‘ziga xos jihat shundaki, undagi vaziyat o‘quvchidan ijodiy yondashishni talab qilib, yozuvchi yechimni qahramon bilan qidirish holatini yuzaga keltiradi va u qahramon bilan voqealarni mushohada qiladi, izlanadi, taftish qiladi, vaziyatdan chiqish yo‘lini qidiradi.

O‘quvchi qahramonning o‘y-fikrlarini kuzatar ekan, ulardagi chalkashliklar, uzilish va ziddiyatlarni ko‘radi, ongosti qatlamlarini tushunib boradi.

Huda Naimiy qahramonning yaqinlariga qaratilgan murojaat monologida ularni Qur’oni Karimning “Al-Kahf” surasidagi g‘orda uxbab, zamonasidan orqada qolib ketgan g‘or ahliga o‘xshatadi va “ta’na toshlari”ni boshlariga yog‘diradi:

أَفْ... هَكُمْ هَذَا أَيْهَا الْبَلَاءُ، أَفْ... هَكُمْ الْأُخْرَى الَّتِي حَلَتْ مَحْلَهَا يَا أَهْلَ الْكَهْفِ، هَكُمُ الْثَالِثُ
وَالرَّابِعُ، هَكُمْ حَصِيبَاتِي عَلَكُمْ تَفِيقُونَ عَلَكُمْ تَعْلَمُونَ، عِنْدَمَا أَعُودُ سَتَّعْلَمُونَ، سَتَّعْلَمُونَ بِأَنِّي لَسْتُ بِحَاجَةٍ
[إِلَيْكُمْ، لَسْتُ بِحَاجَةٍ إِلَى مَا تَلْقَوْنَ بِهِ]. [2:22]

“Uf!...Mana sizlarga toshning bittasi ey, baxillar!

Uf! Mana sizlarga uning o‘rniga boshqasi, ey g‘or ahli, mana sizlarga uchinchi va to‘rtinchisi! Mana sizlarga toshlarning yog‘ini, balki sizlar

uyg‘onarsizlar. Qaytsam, sizlarga ko‘rsataman, o‘shanda men sizlarga muhtoj emasligimni bilib olarsiz, men ham sizlar tashlagan narsaga muhtoj emasman!”.

“Chuqurlik” ruhiy inqiroz ramzi ekanini o‘quvchi hikoyaning oxirgi jumlalarida anglaydi. Xo‘sh, hikoya qahramoni ongida o‘zgarish ro‘y beradimi? O‘quvchi hikoya bilan tanishgach, o‘ziga shunday savol beradi, chunki hikoyaning xotimasi yo‘q. Qahramon odatdagidek ertalab bolasini mакtabga olib borishi kerak. Go‘yo eski hammom-eski tos. Shuning bilan birga, qahramonda o‘z holiga nisbatan isyon paydo bo‘ldi, u go‘yo chuqur uyqudan uyg‘ondi. O‘z ahvolini angladi. Unda iroda shakllana boshladi, lekin maromiga yetmadi. Shuning uchun hikoyaning oxirgi jumlesi o‘quvchini o‘ylantirib qo‘yadi:

و لكنى تعب حقا سانام الان كما نمت البارحة و فى صباح الغد سوف يرقننى ا بنى الصخير لا صحبه
[الى المدرسة!] 2:22]

“*Ammo haqiqatda charchadim, kecha qanday yotgan bo‘lsam, hozir ham shunday yotaman, ertalab kichik o‘g‘lim uni maktabga elitib qo‘yishim uchun meni uyg‘otadi*” .

Demak, otasi, xotini, yaqinlari bilan bo‘lgan konfliktdan ko‘ra, o‘zi bilan o‘zi orasidagi konflikt muhimroq, shiddatliroq, qiyinroqdir. Uni yechmasa, boshqalar bilan konflikt yechilmaydi.

Ammo qahramonning asosan o‘zi yaratgan ruhiy chuqurlik tufayli, u mutelikka o‘rgangan, biror marotaba isyon ko‘tarmagan va “chuqurlikdan” chiqish uchun kuch va iroda topishga ham ojizdir.

Bahrayn adibasi Favziya Rashidning “Suzish” (سباحة) hikoyasida [4-3:7²] erkak va ayol orasidagi inqirozli vaziyatdan qanday chiqqani mohirona yoritib beriladi. Ular ikkalovi ham qaltis, tang, achchiq lahzalarni boshlaridan kechirayotgan edilar. Ular yana bir bor dengiz sohilida uchrashishdi va kelajak munosabatlari to‘g‘risida suhbatlashishdi, chunki ular bir-birini hamon sevar edilar.

Sohilda turib, shovullab o‘ynayotgan dengizga tushish oldidan undan (ayoldan) so‘radi:

لماذا أنت متحتمة ألى هذا الحد؟ -

ان كان ارتحالنا معا في زورق الحياة لم يوحدنا فإننا لا نليق ببعض -

صراعاتنا كلها ساذجا -

لو كانت كذلك لما تثبتت كل لحظة بمحاولة فرض سيادتك واذلالي -

أنك أنت التي تغامرین بحربنا مقابل إثبات وهمي للذات -

ألم يكن تميزي حريري الداخلية هي التي ابهرتك في؟ ثم من قال إن إثبات الذات شيء وهمي أو أنه -

[نقض الحب؟ كل شيء في أصبح يز عجك وهكذا نحن ندور في دورة لا تنتهي.] 3:4]

"Nega sen shu darajada haddan oshmoqdasan?"

-Hayot qayig‘ida birga suzishimiz bizni birlashtirmasa, biz boshqa narsaga loyiq emasmiz.

-Bu bizning bir-birimiz bilan kurashimiz - hammasi bekor.

- Agar shunday ekan, nega har lahza o‘zingni yuqoriga ko‘tarib, meni tahqirlaysan?

- Sen sevgimiz bilan o‘yin qilmoqdasan va haddan tashqari o‘zingni mavjud ekanligini hadeb xayoliy ravishda isbotlayverasan.

- Mening xosligim va ichki ruhiy ozodligim seni bir paytlar ko‘zingni qamashtirgan emasmi? So ‘ng senga kim aytdi-o‘zini isbotlash bu xayoliy narsa va u sevgiga putur yetkazadi?! Mendagi har narsa seni asabiylashtiradi. Mana shunday qilib biz bir nihoyasi yo‘q doirada aylanmoqdamiz”.

Ammo ular yarashmadi, ya’ni ajralishga qaror qilishdi. Har biri o‘z yo‘li bilan ketib, boshqasi bilan ishi bo‘lmaslikka kelishdilar. Bu og‘ir qarorni qabul qilish lahzasida erkak o‘zidan iztirob va alam hissiyotini olib tashlash uchun dengiz mavjlariga sho‘ng‘idi va tubidan chig‘anoqlarni, sadaflarni yig‘ib tepaga olib chiqa boshladi. Xalqumiga kelgan yig‘ini u zo‘rg‘a ushlardi. U ayolning hayron bo‘lib, uni suvga sho‘ng‘iganini va undan ko‘rinmasdan qolganini kuzatganini ko‘rmadi. Keyin ayol ham o‘zini dengiz suviga tashladi va shiddat bilan suzib ketdi. Ular - na erkak, na ayol, bilmas ediki, vaqt kelishi bilan dengiz ularga zarba beradi va nima qilishini kuzatadi.

كل واحد يصارع لحظة موت لا لحظة حب، لحظة بقاء لا لحظة صراع

فج.] 3:4]

“Har biri muhabbat vasfi firoq achchig ‘i lahzasi bilan birga, o ‘limga yuzlanib tirik qolish lahzasini, hayot uchun kurash lahzasini boshidan kechirishini hali bilmas edilar”.

Dengiz go‘yo ularni sinamoqchi bo‘lgandek, mavjlar bilan urib tubiga torta boshladi. Ayoniqsa, ayolning ahvoli yomonlashdi:

في لحظة أخرى حرجة التفت ... كانت تبحث عنه . لمحته يتخطى مثلاها في الماء. يرفع رأسه تارة -
ويفرقها في الموج تارة أخرى. بصعوبة شقت المسافة الأفقية بينهما. لم تكن إلا برهقها يصرخ باسمها
[اقربت منه أكثر قرأت في وجهه كل أيقونات النداء والشوق والفرح]. 3:5

“Og ‘irlashgan ahvolda o ‘girildi va uni qidirdi. O ‘ziga o ‘xshab uni suvda talpinayotganini ko ‘radi. Uning boshi bir pastlab bir ko ‘tarilib zo ‘rg ‘a ko ‘rinardi. Bir amallab qiyinchilik bilan oralaridagi masofadan suzib o ‘tdi. Bir zumda uning nomini aytib qichqirdi, unga yaqinlashganida yuzida shavq, sevinch alomatlarini ko ‘rdi”.

Adiba mazkur hikoyada qahramonlarning oxirgi kuchini yo‘qotib, g‘arq bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatni yaxshi ko‘rsata oldi. Yengiltaklik bilan suvga o‘zlarini otib sho‘ng‘ib, alamidan uzoqqa suzib ketgan erkak va ayol o‘limning sovuq nafasini sezishdi va o‘zlarini qo‘lga olishdi. Shunda ularda ruhiy o‘zgarish ham ro‘y berdi. Ular tez-tez janjallahib, bir-birlarini qiynashib, ayolning bir so‘zdan qolmasligi, erkak unga so‘z bermasligi hammasi behuda ekanligini sezalashdilar.

Dengiz, tabiat orqali yana bir badiiy psixologizm vositasini ishlatib, chuqruiy inqirozdan o‘tayotgan er-xotinning holatini namoyon qildi.

Hikoyada tabiat, dengiz ham o‘zgaruvchan unsur ekanligi yoritib beriladi. U go‘yo vahshiy, qo‘rqinchli hayvondan xatarli, goh shafqatli, mehribon ona kabi yengil mavjlar bilan og‘ushiga olgan jonli xilqatga aylanadi, orom bag‘ishlaydi, quvvat beradi.

Bu erkak va ayol sevgisi, o‘rtalaridagi ezgu hissiyotlar, intilishlar, iztiroblar to‘g‘risidagi lirik hikoyadir. Favziya Rashid hikoyalarida tabiat, ayniqsa, dengiz, osmon, fazo, katta rol o‘ynaydi va ko‘pincha u qahramon holati bilan mutanosib. Masalan, sevganidan ajrashgan ayol uchun olam dengizday shafqatsiz berahm va xatarli tarzda tasvirlanadi.

Kelishmovchiliklar ikki kuchli shaxsning to‘qnashuvi sabab ro‘y beradi. Erkak ayolning tafakkuri, zehni, aqli, o‘zini ozod shaxs sifatida sezishini bilib unga mahliyo bo‘lishi dialoglarda bu yaqqol ko‘rsatiladi. Lekin keyin ayolning ayni shu jihatlari unga malol kela boshladи va u oilaviy munosabatlarda o‘zi “xo‘jayin”ligini qo‘yishga urinadi, ayolga esa “xotinlik joyini” ko‘rsata boshlaydi, kamsitadi. Ayolning vujudi isyon ko‘taradi, u bunday munosabatlarga ko‘nikolmaydi.

Ayol va erkak munosabati Ko‘rfaz arab mamlakatlari hikoyanavisligida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu munosabatda biz an'anaviy va yangicha yondashuvni ko‘ramiz. An'anaviy yondashuvda mazluma ayol erkakning (otasi, eri, akasi, hatto ukasi) to‘la qaramog‘ida bo‘lib, haq-huquqsiz yashaydi. Uning o‘qishi ham muammoga aylanadi, uni majburlab turmushga uzatishlari mumkin, hatto ko‘pincha ikkinchi xotin sifatida yashaydi yoki otasining boshqa xotinidan ozor chekadi. Uning taqdiri to‘rt devor, uy ichida bolalari bilan birga bo‘ladi. Farzandlari voyaga yetgach, ularga ta’sirini yo‘qotadi, chunki bolalar voyaga yetib ona bilan suhbatlashishga mavzu topolmaydi.

Ikkinci yondashuv faqat XX asr oxiri XXI asr boshida asosan adibalar ijodida paydo bo‘ldi. Ulardagi qahramon ayol odatda ziyoli, yuqori ta’limga ega, o‘z-o‘zini anglab, o‘ziga nihoyat ishongan, erkakka teng, ba’zida undan yuqori keladigan ayol (Favziya Rashidning “Suzish ” hikoyasida qahramon ayol mana shu toifadan). Hikoya erkak bilan ayol munosabatlarining inqirozga uchragan nuqtasidan boshlanadi.

Kelishmovchiliklar, erkak va ayolning o‘rtasida doimo ro‘y bergen bahs oqibatda ajralishga qaror qiladilar. Adiba qahramonlarini shunday vaziyatga soladiki, ular suvda g‘arq bo‘lib o‘lib ketish xavfi ostida qolishadi. Bu qaltis holatda ular birlashadi, hayot uchun kurashadi va bir-biriga ko‘mak berib, omon qolishadi. Bu xatarli lahzalar ularni poklaydi, ular go‘yo olam bilan yangidan tug‘ilishadi. O‘lim oldida injiqliklar, o‘zini ustun qo‘yishlarning hammasi mayda, behuda, arzimas bo‘lib ko‘rinadi.

Hikoyada turli adabiy tasviriy usullarning unsurlari uchraydi: birinchidan kinoyaviy usul, qahramonlar dengizga g‘arq bo‘la turib ham, safsata qilishdan

charchashmaydi va yozuvchi bunga ishora qiladi, ikkinchi belgi - qahramonning chin qiyofasi ekzistentsializmga xos “chegarali” vaziyatda, ya’ni qaltis vaziyatda bilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Ko’rfaz arab mamlakatlari hikoyalarda umumbashariy qadriyatlargaga yondashish, insonni jamiyatdagi o’rni va mas’uliyati, avlodlar – ota va bolalar muammosi, ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga munosabat, yoshlar tarbiyasi, inson va tabiat kabi masalalar ko’tarildi. Qishloq hayoti, undagi an'analar va milliy kolorit, odat va udumlar mavzusi o‘z ifodasini topdi.

Odatdagidek, Ko’rfaz hikoyanavislari ijodida oilaviy munosabatlar, nikoh masalasi, ayol mavqeい kabi mavzular o‘z ahamiyatini yo‘qotmadni, ammo bu masalalarda ham zamon talabiga qarab o‘zgarish ro‘y berdi. Ayol kishi jamiyatda sotsium sifatida gavdalanishi turli to‘siqlarga uchrasa ham, bu harakat orqaga qaytmadi, balki olg‘a tomon siljishda davom etib, adabiyotda badiiy tasviri in’ikosini topdi.

XXI asr boshida ham hikoyalar asosan realistik uslubga amal qilib, hayotga yaqin voqelikni tasvir etishda davom etmoqda. Asarlarga badiiy qorishmalar – adabiy sintez xos bo‘lib, ularda sentamentalizmga xos o‘ta hissiyot, ma'rifat adabiyotiga xos didaktik oshkorlik, postmodernizmga xos kinoyaviy modus va intertekstuallik ham namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- د. علي المانعى. القصة القصيرة المعاصرة في الخليج العربي. -ص. 1.68
هدى النعيمي . أبا طيل .. قصص قصيرة. العار المصرية اللبنانية. الطبعة الأولى: 2001-2.
ص.129
- فوزية رشيد. سباحة.القصة قصيرة. الأنطولوجيا.. البحرين. 2018. 4-7. ص.3
4. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna (2021) BAHRAYN YOZUVCHILARI FAVZIYA RASHID VA AMIN SOLIH HIKOYALARI USLUBI // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bahrain-yozuvchilari-favziya-rashid-va-amin-solih-hikoyalari-uslubi>.
5. Akhmedova, Shahlo Irgashbaevna THE ISSUE OF WOMEN'S PLACE IN THE FAMILY AND SOCIETY IN THE CREATION OF GULF ARAB COUNTRIES' LITERATURE // ORIENSS. 2022. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-issue-of-womens-place-in-the-family-and-society-in-the-creation-of-gulf-arab-countries-literature>.

6. Ахмедова, Ш. (2021). Новые художественно-методологические принципы сторителлинга в ОАЭ. *Востоковедения*, 1(1), 4–13. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15813>

7. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758) 2.09, -P.105-109.

8. Akhmedova, Shakhlo Irgashbaevna. (2021). "Ideological and artistic searches in the short stories of the arab countries of the persian gulf at the beginning of the XXI century." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10,-P. 838-842.

9. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna. (2022). FORMATION AND IMPROVEMENT OF REALISTIC STORY IN KUWAIT AND BAHRAIN LITERATURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.Special Issue 6,-P. 409-414.

10. Ahmedova, Shahlo Irgashbaevna. (2023). LITERARY CREATION IN THE GILF ARAB COUTRIES . // Arab globallashuv davrida innovation yondashuvlar va oqitish metodikasi. OzDJTU. Dekabr. 2023.-P124-129
<https://inlibrary.uz/index.php/arabic-language/article/view/28428>